



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONA XIZMATLARI RIVOJINING O'RNI

Mansurov Zokir Xusanovich

Farg'ona davlat universiteti

ORCID: 0009-0001-8319-9531

zokirmansurov1982@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda mehmonxona xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda turizm sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirishga va milliy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mehmonxona sohasini rivojlantirishning asosiy jihatlari o'rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizmni rivojlantirish, mehmonxona, strategiya, madaniyat, tabiat, turizm klasterlari, mehmonxona xizmatlari, mehmonxona xo'jaligi, xizmat, rivojlanish.

РОЛЬ РАЗВИТИЯ ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Мансуров Зокир Хусанович

Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономического механизма эффективного развития рынка гостиничных услуг в условиях реализации стратегии развития устойчивого туризма, а также ускоренного развития сферы туризма и превращения ее в одну из перспективных отраслей национальной экономики. Изучены основные аспекты развития гостиничного хозяйства, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: развитие туризма, гостиница, стратегия, культура, природа, туристические кластеры, гостиничные услуги, гостиничный менеджмент, сервис, развитие.

THE ROLE OF HOTEL SERVICES DEVELOPMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

Mansurov Zokir Xusanovich

Fergana State University

Abstract. The article examines the issues of improving the organizational and economic mechanism for the effective development of the hotel services market in the context of implementing the strategy for the development of sustainable tourism, as well as the accelerated development of the tourism sector and turning it into one of the promising sectors of the national economy. The main aspects of the development of the hotel industry are studied, proposals and recommendations are given.

Keywords: tourism development, hotel, strategy, culture, nature, tourism clusters, hotel services, hotel management, service, development.

Kirish.

Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Shu tufayli bugungi kunda butun dunyo nazari Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyani amalga oshirishga qaratilgandir. "Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" vazifasi qo'yilgan (norma.uz, 2025).

Ushbu vazifaning bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida yangi turistik xizmatlar assortimentini ko'paytirish, yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ko'paytirish, turistlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish tadbirlarini tashkil qilish, zamonaviy turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Fedorovning (2013) ilmiy tadqiqotida ("malaya forma gostinichno biznesa ekonom-klassa") "kichik mehmonxona mehmonxona sohasining arzon joylashtirish vositasi" xostellar olis hududlarni turizm jozibadorligini oshirib, kam daromadli turistlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, chekka hududlardagi aholini bandligini ta'minlaydi. Fedorov mehmonxona va xostellarni biznes nuqtai nazardan solishtirganda tasischiga bir hil daromad keltiradi. Biroq, mehmonxona va xostellarni rentabelligi nuqtai nazardan qaraganda, hostellarning faoliyati mehmonxonaga qaraganda barqarorligi aniqlangan.

Raximov va Norkulovalarning (2020) ko'rsativ o'tishlaricha mehmonxona xizmatlari ishlab chiqarish va iste'molida sifat masalalari juda muhim rol o'ynaydi. Sifatli xizmat kursatmaydigan mehmonxona korxonasi o'zining asosiy maqsadlariga erisha olmaydi. Turli mehmonxona korporatsiyalari rivojlanishining tarixi foyda sifatning mahsuli ekanligini ko'rsatadi. Mehmonxona korxonasi oldida xizmat ko'rsatish sifatini kerakli darajada saqlab turish, kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi turadi.

Tuxliyev va boshqalar (2010) ushbu tushunchaga: "Turizm – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngil ochish ob'ektlari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatori va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir".

Ryabuxaning (2006) ilmiy tadqiqotida "Turistik imkoniyatlarga ega bo'lgan, xizmat ishlab chiqaruvchilar sotadigan va turist o'z tashrifi uchun tanlaydigan hudud yoki inshootlar destinatsiya bo'lishi mumkin".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, turizm sohasida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarini oshirish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turistik xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, sohada raqamli texnologiyalarning samarali usullarini ishlab chiqish, mintaqalardagi turizm resurslaridan samarali foydalanish, maxsus turizm zonalarini tashkil etish, investitsiyalarni jalb qilish orqali infratuzilmani takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turizm sohasini YaIMdagi ulushini oshirish hamda turizmni rentabelli sohaga aylantirishga kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni olib borish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy maqolada bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli taxlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik ko'zatish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda mehmonxona xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda turizm sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirishga va milliy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirish alohida muhim ahamiyat kasb etadi. "Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Mehmonxona, madaniyat, tabiat, etno va gastronomik markazlarni bog'laydigan turizm klasterlari tashkil etish, "turistlar uchun mehmondo'st muhit sertifikatini" joriy qilish lozim" (president.uz., n.d.). Ushbu vazifalarni amaliy jihatdan samarali hal etish, mehmonxonalarning xizmat ko'rsatish salohiyatni oshirish, ularga tashkiliy-boshqaruv va texnologik innovatsiyalarni joriy etish, barcha toifadagi mehmonlar uchun zamonaviy qo'shimcha xizmat turlarini taklif etish, mehmonxona xizmatlaridan qoniqishi, ishonchini paydo qilish hamda mehmonxona imijini oshirish, mehmonxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, turistlarning tunab qolishini hisobga olgan holda mehmonxonalarni rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish asosida mehmonxona biznesini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy-mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mehmonxona sohasini rivojlantirishda uchta jihatning ahamiyati o'rganildi. Birinchidan, mehmonxona xizmatlari bozorida yuqori sifatli va barqaror xizmat ko'rsatishni ta'minlash ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Bu jarayon xizmatlarning samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali turizm talablariga moslashish imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, mehmonxona sohasida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasi va ish sifati mijozlar qoniqishining asosiy omillaridan biridir. Xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ular uchun qulay mehnat sharoitlari yaratish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bandlikni oshirish orqali nafaqat mehmonxona sohasining rivojlanishi ta'minlanadi, balki mahalliy aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Uchunchidan, mehmonxona sohasidagi mehnat bozorining samarali faoliyati uchun davlat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularning amalda to'liq qo'llanishi zarur. Bu xodimlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ish sharoitlarini yaxshilash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilish, xodimlarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash va sohaga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozlari mehnat bozorining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi kabi omillar desertatsiya ishida o'rganildi.

Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlashda yuqorida ko'rsatilgan institutsional kuchlarni tizimli ravishda nazorat qilish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va bandlikni oshirish, shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish orqali mehmonxona sohasida nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar qoniqishini oshirish ham mumkin. Shu tariqa, ushbu kuchlarni yanada takomillashtirish orqali turizm va mehmonxona sohasining mamlakat va hudud iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi sezilarli darajada oshadi.

Bundan tashqari, mehmonxona va joylashtirish vositalarining tashkil etilishi, mamlakatlar kesimida sohaning rivojlanish ko'rsatkichlari va unga tashrif buyuradiganlarga


yaratilayotgan turizm xizmatlari orqali ish o'rinlari ko'paytirish mumkinligi hamda mehmonxona xizmatlarining mazmun mohiyati ochib berildi.

Shu bilan birga, turizmini rivojlantirishda mehmonxonalar rolining muhimligi tahlil qilingan. Bunda, mehmonxonalarda mijozlarga sifatli xizmatlar turini kengaytirish orqali korxonaga va mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirish aniq misollarda yoritildi.

Yurtimizda joylashtirish vositalarining o'sish tendensiyasi o'rganildi. Shuningdek, sohaga ta'sir qiluvchi omillar, turizm va mehmonxona biznesini rivojlanishiga davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar tadqiq etildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mehmonxona xizmatlarining sifatini oshirish uchun iqtisodiyotning barcha nomoddiy tarmoqlarini rivojlantirish, turli turizm xizmatlarining tarixiy ahamiyatini tahlil qilish, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab olish va shu asosida rivojlantirish istiqbollari rejalashtirish taklif qilindi.

O'zbekistonda mehmonxona, joylashtirish vositalari fondi tahlil qilinganda, 2024-yilda 624 ta yangi joylashtirish vositalari (17826 ta o'rin), shundan, 136 ta mehmonxonalar, 226 ta xostellar, 320 ta oilaviy mehmon uylari, 168 ta boshqa joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning jami soni 6022 taga, o'rinlar soni 124,2 mingtani tashkil qilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirish vositalarining o'sishi dinamikasi

O'zbekistonda 2016-yildan boshlab turizm sohasini rivojlantirish borasida bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida sohada tadbirkorlik rivojlandi. Jumladan, 2016-yilda O'zbekistonga 2 mln nafar atrofida, 2019-yilda 6.7 mln nafar atrofida, 2022-yilda 5.2 mln nafar atrofida, 2023-yilda 6.6 mln atrofida 2024-yilda 10.5 xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Bu o'z navbatida mehmonxonalar fondining oshishiga olib kelgan.

Xulosa va takliflar.

Mehmonxona bu "Mahsulotini" xizmatlar to'plami shaklida sotish orqali foyda olishni maqsad qilgan korxonaga bo'lib, xizmat ko'rsatish orqali pudratchi va iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatlar, shuningdek, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha pudratchining o'z faoliyati davomida erishgan natijasidir.

Xizmat nomoddiy tushuncha bo'lib, uni o'lchash mumkin emas, faqat baholanishi mumkin. Mehmonxona mahsulotining asosiy xususiyati shundaki, mijoz o'zi foydalanadigan tovarlarga egalik qilmaydi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

- Fedorov R. G. (2013) "Sovremennye tendentsii razvitiya malix form gostinichnogo biznesa ekonom-klassa na territoriakh s nizkim urovнем turistskoy privilekatelnosti" Sochi. - 16-15-bet.
- Mirziyov Sh.M. (2017) Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 16 yanvar, №11.
- Mirziyoyev Sh.M. (2016). "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi/ Sh.Mirziyoyev. Toshkent: O'zbekiston, 56 b.
- Norma.uz (2025). Информационно-правовой портал. Қонунчиликдаги янгиликлар. [online] Available at: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/2022-2026_yillarga
- president.uz. (n.d.). Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi. [online] Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/6095>.
- Raximov Z.O., Norkulova D.Z. (2020), Turistik destinatsiyalarni loyihalashtirish. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 188 bet.
- Tuxliyev I.S., va boshqalar (2010)Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri.- S.: SamISI, 284 b.
- Рябуха А.Ю. (2006). Управление развитием местных сообществ на основе использования туристского пространства: дис. ... канд. экон. наук. – Краснодар:– 156 с.
- Тухлиев И.С. ва бошқалар. (2010). Туризмни режаслаштириш. Дарслик. – 389 б.
- Тухлиев И.С., Ибадуллаев Н.Е. (2011) Туризм операторлик хизматини ташкиллаштиришнинг асослари. Ўқув қўлланма. – С.: СамИСИ, 256 б.
- Тухлиев И.С., Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ. (2010) Туризмни режаслаштириш. Дарслик. – Т.: «Иқтисод-молия»– 263 б.
- Ҳайитбоев Р., ва бошқалар. (2016). Туризм маршрутларини ишлаб чиқиш. Ўқув қўлланма. – С.: СамИСИ, 2016.-176 б.